*Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi*

# SIRDARYO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

***2021- YIL YANVAR-DEKABR OYLARI MA'LUMOTLARI***



Sanoat statistikasi bo'limi
Tel.: 67-236-86-23

# Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2021- yil yanvar-dekabr oylarida)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 9765,5 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 118,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (55,8 %)ni hamda ishlab chiqarish hajmi 5447,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




*mlrd. so‘m*




***B** – Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C** – Ishlab chiqaradigan sanoat **D** – Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash, **E** – Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.*

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* *% da*




*FHI % da*




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 22,4 % ga hamda elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning – 17,3 % ga o‘sishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 66,6 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi,**
*(yanvar-dekabr oylarida, % da)*




## Ishlab chiqaradigan sanoat




2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5447,2 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 55,8 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi**,
*(yanvar-dekabr oylarida, % da)*




O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 3,8 % ni (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida – 6,3 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 5,0 % (4,0 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 20,2 % (16,9 %) va quyi texnologiyalisi – 71,0 % (72,8 %)ni tashkil etdi.



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-dekabr | 2021- yil yanvar-dekabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Aroq, ming litr 100 % spirt** | 1579,6 | 730,9 | -848,7 |
| **Sellyuloza, kg 90%** | 1939786,0 | 2556831,0 | 617045 |
| **Tarkibida alkoloidlar bo‘lgan yoki bo‘lmagan garmonlar va antibiotiklar,t** | 8205,0 | 6618,2 | -1586,8 |
| **Yumshoq bug‘doy va spelta uni,** *ming t.* | 72,1 | 56,4 | -15,7 |
| **Paxta tolasi,** *ming t.* | 309,4 | 367,4 | 58 |
| **O‘simlik yog‘i (tozalangan),** *ming t.* | 4,5 | 5,0 | 0,5 |

## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-dekabr oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 33,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 4,2 % ga oshgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 32,1 % tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 11,6 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 1749,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-dekabr oylarida)*









Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 12,3 % ga oshgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,8 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 73,2 % ni va ishlab chiqarish hajmi 45,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-dekabr oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 24,2 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 131,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 21,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 19,5 % ga o‘sgan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 1164,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.








## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-dekabr oylarida)*




2020- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,6 % ni, fizik hajm indeksi esa 49,1 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 8,7 % ni, fizik hajm indeksi 181,8 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 473,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

*(yanvar-dekabr oylarida)*

2020- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plast-massa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 153,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,9 % ni, fizik hajm indeksi 126,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 320,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

*yanvar-dekabr oylarida*

mlrd. so‘m







FHI
*% da*

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4188,4 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (42,9 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 17,3 % ga oshganligi kuzatildi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,**

*(yanvar-dekabr oylarida, % da)*

2020- y.







2021- y.

## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-dekabr | 2021- yil yanvar-dekabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln.kVt.s* | 14967,2 | 15820,8 | 853,6 |
| **Issiqlik energiyasi,** *ming gkal* | 276,3 | 151,2 | -125,1 |

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

*yanvar-dekabr oylarida*







Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 63,4 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini) tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,

*(yanvar-dekabr oylarida, % da)*







| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-dekabr | 2021- yil yanvar-dekabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar,** *mln.so‘m* | 20580,6 | 41210,9 | 20630,9 |
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar,** *mln.so‘m* | 1797,1 | 3788,7 | 1991,6 |
| **Shahar ho‘jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz xavfsiz chiqindilarini yig‘ish bo‘yicha xizmatlar,** *mln.so‘m* | 11731,6 | 14251,6 | 2520,0 |

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3700,4 mlrd.so‘mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 118,0 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 37,9 % ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 2,3 % (2020- yil yanvar-dekabr oylarida 3,2 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to‘g‘ri kelib 38,0 % ni, shuningdek, Guliston shahri 17,1 % ni, Yangiyer shahri 7,7 % ni hamda Mirzaobod tumani 7,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida viloyatning o‘sish sur’ati (118,0 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Guliston tumani (171,7 %), Sirdaryo tumani (131,9 %), Xovos tumani (129,2 %), Shirin shahri (122,3 %), Sardoba tumani (119,4 %), Mirzaobod tumani (117,8 %) hamda Sayxunobod tumanida (111,8 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2021-yilning yanvar-dekabr oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Sirdaryo viloyati | 3700,4 | 100 | 118,0 |
| Guliston sh | 634,3 | 17,1 | 94,6 |
| Sayxunobod | 190,7 | 5,2 | 111,8 |
| Shirin sh | 26,2 | 0,7 | 122,3 |
| Sardoba | 103,4 | 2,8 | 119,4 |
| Yangiyer sh | 286,0 | 7,7 | 106,7 |
| Sirdaryo | 1405,9 | 38,0 | 131,9 |
| Boyovut | 202,7 | 5,5 | 120,3 |
| Xovos | 198,7 | 5,4 | 129,2 |
| Guliston | 245,3 | 6,6 | 171,7 |
| Mirzaobod | 271,4 | 7,3 | 117,8 |
| Oqoltin | 135,9 | 3,7 | 86,8 |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatning jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to‘g‘ri kelib, 49,9 % shuningdek, Guliston shahri 13,0 %, Mirzaobod 9,7 % va Guliston tumanlari 9,4 % ni tashkil etdi.

**<u>Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati</u>**

*2021- yilning yanvar-dekabr oylarida*

| | *Mlrd. so‘m* | *Ulushi % da* | *O‘sishi % da* |
|---|---|---|---|
| **Sirdaryo viloyati** | **2098,3** | **100** | **130,1** |
| **Guliston sh** | **273,1** | **13,0** | **95,9** |
| **Sayxunobod** | **12,2** | **0,6** | **80,4** |
| **Shirin sh** | **7,5** | **0,4** | **140,2** |
| **Sardoba** | **9,7** | **0,5** | **82,5** |
| **Yangiyer sh** | **179,4** | **8,5** | **123,2** |
| **Sirdaryo** | **1046,7** | **49,9** | **142,7** |
| **Boyovut** | **53,0** | **2,5** | **116,9** |
| **Xovos** | **87,4** | **4,1** | **218,0** |
| **Guliston** | **197,2** | **9,4** | **196,2** |
| **Mirzaobod** | **202,7** | **9,7** | **117,7** |
| **Oqoltin** | **29,4** | **1,4** | **50,1** |

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatning jami hajmidagi eng yuqori ulushi Guliston shahriga to‘g‘ri kelib 22,6 % ni, shuningdek, Sirdaryo 22,4 % ni, Sayxunobod 11,1 %, Boyovut tumanlari 9,3 % ni tashkil etdi.

## Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2021- yilning yanvar-dekabr  oylarida*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Sirdaryo viloyati | 1602,1 | 100 | 105,3 |
| Guliston sh | 361,3 | 22,6 | 93,6 |
| Sayxunobod | 178,4 | 11,1 | 114,9 |
| Shirin sh | 18,7 | 1,2 | 116,4 |
| Sardoba | 93,7 | 5,8 | 125,1 |
| Yangiyer sh | 106,5 | 6,7 | 87,0 |
| Sirdaryo | 359,2 | 22,4 | 108,1 |
| Boyovut | 149,7 | 9,3 | 121,6 |
| Xovos | 111,3 | 6,9 | 97,9 |
| Guliston | 48,1 | 3,0 | 113,5 |
| Mirzaobod | 68,7 | 4,3 | 118,0 |
| Oqoltin | 106,5 | 6,7 | 108,9 |

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-dekabr oylarida*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1787,0 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 18,3 % ni tashkil etdi.

# Viloyatning hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*2021- yilning yanvar-dekabr oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Sirdaryo viloyati | 9765,5 | 100,0 | 118,5 |
| Guliston sh | 1091,6 | 11,2 | 100,5 |
| Sayxunobod | 423,3 | 4,3 | 106,3 |
| Shirin sh | 3941,5 | 40,4 | 108,2 |
| Sardoba | 152,0 | 1,5 | 129,5 |
| Yangiyer sh | 672,5 | 6,9 | 108,6 |
| Sirdaryo | 1742,3 | 17,8 | 110,4 |
| Boyovut | 437,2 | 4,5 | 110,8 |
| Xovos | 211,3 | 2,2 | 103,4 |
| Guliston | 351,3 | 3,6 | 124,1 |
| Mirzaobod | 423,6 | 4,3 | 105,9 |
| Oqoltin | 318,9 | 3,3 | 122,4 |

**<u>Viloyatning jami sanoat</u>**
**<u>mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da</u>**

Viloyatning sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Shirin shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 40,4 % i), Sirdaryo tumani (17,8 %), Guliston shahri (11,2 %), Yangiyer shahri (6,9 %), va Boyovut tumani (4,5 %) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Xovos (2,2 %) hamda Sardoba (1,5 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.






Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Shirin shahrida (207623,5 ming so‘m), Sirdaryo tumanida (13280,4 ming so‘m) hamda Guliston shahrida (11814,6 ming so‘m) o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (11227,9 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 4254,5 ming so‘m bo‘lgani holda, Sirdaryo tumanida – 10716,3 ming so‘mni, Guliston shahrida – 6864,6 ming so‘mni, Yangiyer shahrida – 6394,0 ming so‘mni, Mirzaobod tumanida – 3566,1 ming so‘mni tashkil etdi.

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-dekabr oylarida, ming so‘m*

| | *Sanoat mahsulotlari* | *Iste’mol mahsulotlari* |
|---|---|---|
| **Sirdaryo viloyati** | 11227,9 | 4254,5 |
| **Guliston sh** | 11814,6 | 6864,6 |
| **Shirin sh** | 207623,5 | 1378,7 |
| **Yangiyer sh** | 15037,2 | 6394,0 |
| **Boyovut** | 3290,3 | 1525,8 |
| **Guliston** | 4677,2 | 3266,3 |
| **Mirzaobod** | 5566,2 | 3566,1 |
| **Oqoltin** | 5967,2 | 2542,7 |
| **Sayxunobod** | 5341,0 | 2405,3 |
| **Sardoba** | 2247,1 | 1529,0 |
| **Sirdaryo** | 13280,4 | 10716,3 |
| **Xovos** | 2155,0 | 2026,8 |

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*2021- yilning yanvar-dekabr oylarida, % da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3866,9 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 39,6 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Sardoba (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Mirzaobod (99,7 %), Boyovut (91,8 %), Xovos (79,9 %) hamda Sayxunobod (65,3 %) tumanlarida kuzatildi.






Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki Oqoltin tumanida (58,9 %), Yangiyer shahrida (57,4 %), Sirdaryo (53,5 %) va Guliston (51,5 %) tumanlarida hamda Shirin shahrida (0,8 %) sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

## Viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

*(2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda viloyatda 2198 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 539 tasi (ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar umumiy sonining 24,5 %) Guliston shahriga, 364 tasi (16,6 %) Sirdaryo tumaniga, 202 tasi (9,2 %) Yangiyer shahriga, 184 tasi (8,4 %) Boyovut tumaniga, 173 tasi (7,9 %) Mirzaobod tumaniga, 150 tasi (6,8 %) Sayxunobod tumaniga to‘gri kelmoqda.




2021- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda 477 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 100 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi 21,0 %) Guliston shahrida, 72 tasi (15,1 %) Sirdaryo tumanida, 54 tasi (11,3 %) Mirzaobod tumanida, 43 tasi (9,0 %) Yangiyer shahrida hamda 42 tasi (8,8 %) Boyovut tumanida tashkil etildi.